Hududiy brend kapitali nazariyasining rivojlanishi doirasida Bjørn Jacobsen tomonidan taklif etilgan “investor-based place brand equity” konsepsiyasi alohida eʼtiborga loyiqdir [19]. Ushbu yondashuvga koʻra, kuchli mintaqaviy brend investorlar uchun axborot asimmetriyasini kamaytiradi, baholash xarajatlarini qisqartiradi va investitsiya qarorlarini tezlashtiradi. Sourav Bose va boshqalar tomonidan oʻtkazilgan empirik tadqiqotlar ham hududiy brend kapitalining investitsiya jozibadorligiga bevosita ijobiy taʼsirini tasdiqladi [5]. Xususan, brendning tanilish darajasi, mazmuni, sifat idroki va unga boʻlgan bogʻliqlik investorlar qarorida muhim rol oʻynashi aniqlandi.

Fernando Almeida va boshqalar tomonidan ilgari surilgan yondashuvga koʻra, mintaqaviy imij hududning tarixiy-madaniy resurslari va iqtisodiy salohiyati asosida tabiiy ravishda shakllanadi [6]. Bu esa imijni sunʼiy marketing mahsuli emas, balki strategik rivojlanish jarayonining ajralmas qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda, Xorazm viloyatining boy tarixiy merosi va zamonaviy iqtisodiy oʻsishi uning ijobiy imijini mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida namoyon boʻladi.

Xalqaro tajribalar ham mintaqaviy imijning investitsiya oqimlariga sezilarli taʼsirini koʻrsatadi. Bilbao shahrida Guggenheim Museum Bilbao asosida shakllangan madaniy brend modeli hududning investitsiya va turizm oqimlarini sezilarli darajada oshirganini koʻrsatdi [20]. Ushbu tajriba Xorazm viloyati uchun ham dolzarb boʻlib, Xiva shahrining UNESCO maqomi va xalqaro eʼtiroflari mintaqaning global imijini mustahkamlashda muhim rol oʻynamoqda.

Signal nazariyasi doirasida esa mintaqaviy imij investorlar uchun ishonchli axborot signali vazifasini bajaradi [11]. Xorazm viloyatida mavjud xalqaro e'tiroflar, yirik investitsiya loyihalari va institutsional islohotlar aynan shunday signal sifatida namoyon bo'lib, hududning investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Per Nilsson tomonidan aniqlangan samarali kommunikatsiya va strategik yondashuvning ahamiyati hududiy imijni barqaror rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi [11].

Mavjud ilmiy adabiyotlar mintaqaviy imij va investitsiya oqimlari o'rtasida kuchli va ko'p kanalli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu bog'liqlikni Xorazm viloyati misolida tahlil qilish mintaqaviy rivojlanish siyosatini yanada takomillashtirish va investitsiya jalb etish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada metodologiya nazariy va empirik yondashuvlarning uyg'unligi asosida shakllantirildi. Tadqiqotda mintaqaviy imij va investitsiya oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv hamda konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Asosiy ma'lumotlar bazasi sifatida 2010–2025-yillarga oid Xorazm viloyatining rasmiy statistik ko'rsatkichlari qo'llanildi. Joy marketingi, hududiy brend kapitali va signal nazariyalari o'zaro integratsiya qilinib, ularning amaliy ifodasi hudud misolida asoslab berildi.

Metodologiya natijalarning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlab, mintaqaviy imijni boshqarish bo'yicha samarali xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2010–2025-yillar). Xorazm viloyatining mintaqaviy imiji bilan investitsiya oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda rasmiy statistik ko'rsatkichlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi jadvalda viloyatning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari 2010–2025-yillar kesimida keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2010-2025 yillar)[22]

Yil	Investitsiyalar, mlrd so'm	Sanoat mahsuloti, mlrd so'm	Eksport, mln AQSH dollar	YaHM jon boshiga, ming so'm	Bandlik, ming kishi
2010	416.9	628.6	156.2	1,826.7	475.8
2012	783.4	1,014.2	155.0	2,920.1	509.0
2014	1,614.8	1,920.8	139.4	4,302.7	557.2
2016	1,560.5	2,802.7	95.6	5,867.0	590.3
2017	2,175.9	4,070.4	122.7	7,565.5	599.2
2019	5,032.0	8,538.6	146.9	12,026.8	591.9
2021	8,292.0	13,658.1	231.2	16,192.9	574.3
2023	11,666.1	21,589.1	304.2	22,945.5	609.8
2024	15,624.1	28,438.8	427.5	26,633.7	611.0
2025	22,621.2	34,276.1	435.7	30,713.5	-

1-jadval ma'lumotlari bir qator muhim iqtisodiy tendensiyalarni ko'rsatadi. Asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar 2010-yildagi 416,9 milliard so'mdan 2025-yilga kelib 22 621,2 milliard so'mga oshdi, ya'ni 54 barobar ko'paydi [22]. Eksport hajmi 2010-yildagi 156,2 million AQSh dollaridan 2024-yilda 427,5 million AQSh dollariga, 2025-yilda esa 435,7 million AQSh dollariga yetdi. Bu esa 2,8 barobar o'sishni anglatadi [22]. Sanoat mahsuloti hajmi 2010-yildagi 628,6 milliard so'mdan 2025-yilga kelib 34 276,1 milliard so'mga oshdi, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot esa 1 826,7 ming so'mdan 30 713,5 ming so'mga ko'tarildi [22].

Investitsiyalar o'sish sur'atlarida alohida e'tiborga loyiq jihat shundaki, eng yuqori o'sish 2025-yilda kuzatildi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan 134,9 foizga oshdi [22]. Bu ko'rsatkich viloyatdagi investitsion faollik keyingi yillarda yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Bandlik ko'rsatkichi ham 2010-yildagi 475,8 ming kishidan 2024-yilda 611,0 ming kishiga yetib, barqaror o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda.




Mintaqaviy imij profili: kuchli tomonlar va imkoniyatlar

Mintaqaviy imij — bu hududni idrok qiluvchi tashqi auditoriya, ya'ni investorlar, turistlar va xalqaro institutlar ongida shakllanadigan yaxlit tasvir bo'lib, u obyektiv omillar (resurs bazasi, infratuzilma, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar) hamda subyektiv omillar (media yoritilishi, og'zaki kommunikatsiya va brendlash harakatlari) uyg'unligi asosida shakllanadi [3]; [6]. Xorazm viloyati mintaqaviy imijining asosiy tarkibiy elementlari tahlil qilganda quyidagi manzara yuzaga keladi.

Tarixiy-madaniy kapital. Xiva shahri UNESCO jahon merosi obyektlaridan biri bo'lib, 1990-yildan buyon xalqaro himoyaga olingan. Organisation of Islamic Cooperation tomonidan 2024-yilda berilgan "Islom dunyosi turizm poytaxti" maqomi esa mintaqaviy imijning qisqa muddatda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini anglatadi [10]. Turizm xizmatlari eksportining 2024-yilda 58,3 million AQSh dollariga yetgani esa imij kapitalining bevosita iqtisodiy natijaga aylanganini ko'rsatadi [22].

Iqtisodiy-infratuzilmaviy baza. Hazorasp erkin iqtisodiy zonasining faoliyat yuritishi, Khorezm Invest Project MChJning tashkil etilishi (ustav kapitali 30 million AQSh dollari) va 686 ta investitsiya loyihasining (9,8 trillion so'm) rejalashtirilishi viloyatning investitsion tayyorgarlik darajasini ko'rsatadi [13]; [21]. Investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibida 2025-yilga kelib chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi 67,9 foizga yetgani [22] mintaqaning xalqaro kapital bozoridagi ishonch darajasini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Eksport diversifikatsiyasi. Viloyat eksportining tarmoq tarkibida 2010–2025-yillar davomida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Nooziq-ovqat xomashyosi ulushi 66,0 foizdan 1,4 foizga tushgan bo'lsa, sabzavot va mevalar hamda sanoat tovarlari, jumladan, to'qimachilik mahsulotlari ulushi sezilarli darajada oshdi [22]. Ushbu tarkibiy o'zgarish viloyatning qo'shilgan qiymati yuqoriroq bo'lgan mahsulotlarga yo'naltirilgan eksport imijini shakllantirishga xizmat qildi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqaviy imij va investitsiya oqimlari o'rtasidagi bog'liqlik: konseptual modeli¹

Xorazm viloyatida investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibining dinamikasi mintaqaviy imijning investitsiya qarorlariga ta'siri haqida muhim ma'lumot beradi. 1-rasmda tasvirlangan konseptual model doirasida moliyalashtirish tarkibidagi o'zgarishlar imij signallarining samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkich sifatida talqin etilishi mumkin (2-jadval).

1 Manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2-jadval. Xorazm viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibi 2025-yil, foizda [22]

Moliyalashtirish manbai	Ulushi, foizda
Korxonalar va aholining o'z vositalari	23.6
Qabul qilingan mablag'lar - jami	75.4
-davlat byudjeti	6.1
-bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1.5
-chet el investitsiyalari va kreditlari	67.9

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2025-yilda chet el investitsiyalari va kreditlarining umumiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi 67,9 foizni tashkil etdi [22]. Bu ko'rsatkich Michael Spencening signal nazariyasi [11] doirasida muhim ahamiyatga ega. Xorijiy kapitalning shu darajada yuqori ulushi mintaqada signal mexanizmlarining ishonchli darajada ishlayotganini ko'rsatadi. 2010–2013-yillarda bu ko'rsatkich 4,7–11,1 foiz atrofida bo'lganini hisobga olsak, 2025-yilga kelib 67,9 foizga yetishi ko'p yillik izchil imij shakllanishining natijasi sifatida baholanishi lozim [22].

Korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan investitsiyalar ulushi 23,6 foizni tashkil etmoqda. Bu esa ichki tadbirkorlik muhiti barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. Davlat byudjeti mablag'lari ulushining 6,1 foiz bilan nisbatan past darajada bo'lishi esa moliyalashtirish modelining xususiy va xorijiy kapitalga tayanayotganini ifodalovchi ijobiy tarkibiy ko'rsatkich hisoblanadi [22].

Xorazm viloyatining eksport geografiyasi mintaqaviy imijning xalqaro miqyosdagi o'zgarishini kuzatish uchun qo'shimcha ma'lumot beradi. Stat.uz ma'lumotlariga ko'ra, viloyatning asosiy eksport hamkorlari sifatida 2025-yilda Pakistan (106,4 mln AQSh dollari), Russia (97,6 mln AQSh dollari), Kazakhstan (31,0 mln AQSh dollari) va Afghanistan (86,0 mln AQSh dollari) alohida ajralib turadi [22]. Ushbu geografyaning kengayishi — 2010-yilda Iran va China yetakchi o'rinlarda bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda janubiy yo'nalishdagi hamkorlikning, xususan, Pakistan va Afghanistan bilan savdo aloqalarining sezilarli darajada kengaygani — mintaqaning tijorat imijidagi strategik o'zgarishni aks ettiradi (3-jadval).

3-jadval. Xorazm viloyati eksporti tarkibiy o'zgarishlari (2013-2025 yil)[22]

Eksport kategoriyasi	2025 yil ulushi, foizda	2013-yilga nisbatan dinamikasi, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	56.2	1.1
Sanoat tovarlari (to'qimachilik)	23.7	-4.3
Xizmatlar eksporti	12.6	Barqaror
Turli xil tayyor buyumlar	4.2	0.1
Nooziq-ovqat xomashyo	1.4	-66.0
Boshqa tovarlar	1.9	Yangi yo'nalishlar

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2013-yilda eksport tarkibida 66 foizni tashkil etgan nooziq-ovqat xomashyosi (asosan paxta tolasi) 2025-yilga kelib 1,4 foizga tushdi. Buning o'rniga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar ulushi 56,2 foizga ko'tarildi. Bu esa to'qimachilik va sabzavotchilik klasterlari bo'yicha qo'shilgan qiymati yuqoriroq bo'lgan eksport mahsulotlariga o'tilganini anglatadi [22].

Ushbu sektoral transformatsiya investitsion imij nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Xomashyo eksportchisidan qayta ishlangan mahsulotlar yetkazib beruvchi mintaqaga aylanish investorlar uchun yuqoriroq daromad va pastroq tavakkalchilik signali bo'lib xizmat qiladi [11].

1-rasmda tasvirlangan konseptual modelda mintaqaviy imij elementlari (chap blok) investitsiya oqimlariga (o'ng blok) to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi. Ular uchta asosiy mexanizm (markaziy blok) orqali o'zaro bog'lanadi.

Signal mexanizmi. Xorazm viloyatida mavjud bo'lgan UNESCO maqomi, OIC e'tirofi va xalqaro hamkorlik bitimlari signal nazariyasi talqinida muhim signal vazifasini bajaradi. Stat.uz ma'lumotlariga ko'ra, qurilish sektorida 2025-yilda 14 020,9 milliard so'mlik ishlar amalga oshirilgan. Bu esa 2010-yilga nisbatan qariyb 50 baravar ko'pdir [22]. Shuningdek, Khorezm Invest Project tashkilotining yaratilishi va uning xorijiy investorlar bilan bog'lovchi interfeys vazifasini bajarishi ham muhim institutsional signal hisoblanadi. Bu hududning investorlar uchun qulay murojaat va hamkorlik kanalini yaratganini anglatadi [13].



Joylashuv tanlash omili mexanizmi. Viloyatdagi chakana savdo aylanmasining 2010-yildagi 1 005,9 milliard soʻmdan 2025-yilda 18 715,9 milliard soʻmga oshgani [22] bozor salohiyatining kengayganini ifodalaydi va investorlar uchun hudud tanlash jarayonida muhim mezonlardan biri boʻlib xizmat qiladi. Bandlik koʻrsatkichining 475,8 ming kishidan 611,0 ming kishiga oshishi esa mehnat resurslari bazasining kengayib borayotganini koʻrsatadi.

Hududiy brend kapitali mexanizmi. Sourav Bose va boshqalar taʼkidlaganidek, brend kapitali investor uchun due diligence xarajatlarini kamaytiradi [5]. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot oʻsish surʼatining 2025-yilda 105,9 foizga yetgani [22] investorlar uchun mintaqadagi hayot sifati va isteʼmolchi bazasining oʻsishi haqidagi muhim statistik signal boʻlib, sarmoya samaradorligi hisob-kitoblarida ijobiy fon yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada mintaqaviy imij va investitsiya oqimlari oʻrtasidagi nazariy-konseptual bogʻliqlik Xorazm viloyatining rasmiy statistik koʻrsatkichlari bilan uygʻun holda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchi xulosa. Mintaqaviy imij investitsiya qarorlariga bevosita emas, balki uchta asosiy mexanizm — signal, joylashuv tanlash omili va hududiy brend kapitali orqali taʼsir koʻrsatishi aniqlandi. Xorazm viloyati misolida ushbu mexanizmlarning amaliy ifodasi UNESCO merosi, OIC eʼtirofi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati hamda chet el investitsiyalari ulushining 67,9 foizga yetgani bilan mustahkamlandi [22]. Bu koʻrsatkichlar viloyatning investitsiyaviy jozibadorligi shakllanib, xalqaro maydonda tan olinayotganini koʻrsatadi.

Ikkinchi xulosa. Asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalarning 2010–2025-yillarda 416,9 milliard soʻmdan 22 621,2 milliard soʻmga, yaʼni 54 barobar oshgani [22] mintaqaviy imijning izchil va barqaror ravishda mustahkamlanib borishi bilan uygʻun holda kuzatildi. Eksport tarkibidagi tarkibiy oʻzgarishlar, xususan, nooziq-ovqat xomashyosi ulushining 66,0 foizdan 1,4 foizga kamayishi va oziq-ovqat sektorining 56,2 foizga yetgani [22], viloyatning xalqaro tijorat imijida sifat jihatidan yangi bosqich shakllanganini anglatadi. Bu holat mintaqaning investitsiya va savdo salohiyati yanada kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Uchinchi xulosa. “Investitsiya – imij – yangi investitsiya” oʻzaro mustahkamlovchi zanjiri Xorazm viloyatida ijobiy yoʻnalishda shakllanib borayotgani kuzatildi. Sanoat mahsulotining 2010-yildagi 628,6 milliard soʻmdan 2025-yilda 34 276,1 milliard soʻmga yetgani [22], eksport geografiasining kengaygani va xizmatlar sektorining rivojlanishi mintaqaning yangi investitsiyalar uchun yanada jozibador hudud sifatida namoyon boʻlayotganini koʻrsatadi. Shunday qilib, mavjud iqtisodiy natijalar oʻz navbatida viloyat imijini yanada mustahkamlaydigan yangi resursga aylanmoqda.

Tahlil natijalariga tayangan holda, Xorazm viloyatining mintaqaviy imijini investitsiya oqimlariga yanada samarali yoʻnaltirish uchun toʻrtta ustuvor strategik yoʻnalishni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yoʻnalish — raqamli imij tizimini shakllantirish. Viloyatning investitsiya portali va xalqaro PR tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish zarur. Ushbu platformada mavjud sanoat zonalar, loyihalar portfeli, eksport salohiyati va operatsion maʼlumotlar ingliz, arab va xitoy tillarida toʻliq va tizimli shaklda taqdim etilishi lozim. Xorazm viloyati eksport geografiasida Pakistan va Afghanistan yoʻnalishlarining sezilarli oʻsishi kabi tijorat yutuqlarini raqamli kommunikatsiya kanallari orqali keng targʻib qilish mintaqaning xalqaro imijini yanada mustahkamlaydi. Bu investorlarda ishonch va qiziqishni oshiruvchi muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Ikkinchi yoʻnalish — klaster ixtisoslashuvini brendlashtirish. Viloyat eksportining 56,2 foizini tashkil etayotgan oziq-ovqat mahsulotlari, ayniqsa sabzavot va mevalar, shuningdek, 23,7 foizlik ulushga ega boʻlgan sanoat tovarlari, jumladan, toʻqimachilik yoʻnalishlari boʻyicha alohida tarmoq brendlari shakllantirish maqsadga muvofiq [22]. Bunday yondashuv investorlar uchun hududning iqtisodiy xaritasini aniqroq koʻrsatadi, viloyatning ixtisoslashgan ustunliklarini yaqqol namoyon etadi va investitsiya qarorlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, klasterli brendlashtirish eksport va ichki ishlab chiqarish zanjirlarining uygʻun rivojlanishiga yordam beradi.

Uchinchi yoʻnalish — xalqaro institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish. OIC, UNESCO, MDH va boshqa xalqaro platformalar doirasida viloyat uchun yangi eʼtiroflar, forumlar va hamkorlik dasturlarini jalb qilish boʻyicha faol diplomatik va institutsional siyosat olib borilishi lozim. Xiva shahrining brendini butun viloyat investitsiya imijining asosiy targʻibotchisi sifatida yanada faol qoʻllash katta samara beradi. Xiva orqali shakllanadigan kuchli ijobiy tasavvur Xorazm viloyatining boshqa tumanlari va iqtisodiy zonalariga ham investor eʼtiborini kengaytiradi.

Toʻrtinchi yoʻnalish — investitsiya iqlimi monitoring tizimini joriy etish. Mintaqaviy imijning investitsiya oqimlariga taʼsirini muntazam baholab borish uchun mahalliy boshqaruv tizimida imij-audit, investorlar fikrini oʻrganish va biznes subyektlari bilan tizimli soʻrovnomalar mexanizmini yaratish tavsiya etiladi. Chet el investitsiyalari ulushining 2025-yilda 67,9 foizga yetgani [22] ushbu koʻrsatkichni saqlash va yanada oshirish uchun tahliliy monitoring tizimining muhimligini koʻrsatadi. Sourav Bose va boshqalar taklif qilgan CBPBE-RI

o'Ichov tizimi [5] bunday monitoring uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa mintaqaviy boshqaruvda qarorlar qabul qilish sifatini oshiradi va investitsiya siyosatini yanada maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Xorazm viloyati mintaqaviy imij va investitsiya oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni amaliy natijalar bilan namoyon etayotgan hudud sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-madaniy salohiyat, eksport tarkibining yangilanishi, investitsiya hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi va xalqaro miqyosda tan olinayotgan hududiy brend elementlari viloyatning istiqboldagi investitsiyaviy jozibadorligini yanada mustahkamlash uchun yetarli asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kotler P., Haider D.H., Rein I. Marketing Places: Attracting Investment, Industry, and Tourism to Cities, States, and Nations. - New York: The Free Press, 1993. - 388 p. https://openlibrary.org/books/OL1740510M/Marketing_places
2. Anholt S. Places: Identity, Image and Reputation. - London: Palgrave Macmillan, 2010. - 256 p. <https://link.springer.com/book/10.1057/9780230232976>
3. Kavartzis M., Ashworth G.J. City Branding: An Effective Assertion of Identity or a Transitory Marketing Trick? // Tijdschrift voor Economische en Sociale Geografie. - 2005. - Vol. 96, №5. - P. 506-514. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9663.2005.00482.x>
4. Zenker S., Braun E. Questioning a "one size fits all" city brand: Developing a branded house strategy for place brand management // Journal of Place Management and Development. - 2017. - Vol. 10, №3. - P. 270-287. <https://doi.org/10.1108/JPMD-04-2016-0018>
5. Bose S., Pradhan S., Bashir M., Roy S.K. Customer-Based Place Brand Equity and Tourism: A Regional Identity Perspective // Journal of Travel Research. - 2022. - Vol. 61, №4. - P. 803-820. <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1177/0047287521999465>
6. Almeida G.G.F. et al. The influence of destination image within the territorial brand on regional development // Cogent Social Sciences. - 2023. - Vol. 9, №1. - Art. 2233260. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311886.2023.2233260>
7. Trend.Az. Uzbekistan unveils new investment vision for Khorezm region. - 2025. - 12 sentyabr. <https://www.trend.az/business/4090536.html>
8. U.S. Department of State. 2022 Investment Climate Statements: Uzbekistan. - Washington, 2022. <https://www.state.gov/reports/2022-investment-climate-statements/uzbekistan/>
9. U.S. Department of State. 2023 Investment Climate Statements: Uzbekistan. - Washington, 2023. <https://www.state.gov/reports/2023-investment-climate-statements/uzbekistan>
10. Rajabov J.M., Yusupova M.T. Managing Investment Activity in Tourism Services: Case of Khorezm Region // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. - 2025. - Vol. 6, №4. - P. 1525-1533. <https://cajitm.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/download/1026/1044/>
11. Nilsson J.H. The role of place branding in local and regional economic development: Bridging the gap between policy and practicality // Regional Studies, Regional Science. - 2016. - Vol. 3, №1. - P. 1-17. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/21681376.2016.1163506>
12. U.S. Department of State. 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan. - Washington, 2024. <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan/>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiya jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020-yil 17-avgust. <https://yuz.uz/en/news/a-decree-was-signed-to-increase-the-investment-attractiveness-of-the-khorezm-region->
14. CERR. Xorazm viloyatining 2017-2022 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi (Rasmiy hisobot). - Toshkent, 2023. <https://uzbekistan.org/cerr-socio-economic-development-of-khorezm-region-for-2017-2022/3196/>
15. APP / Qazinform. Uzbekistan unveils new investment vision for Khorezm region. - 2025. - 15 sentyabr. <https://qazinform.com/news/uzbekistan-unveils-new-investment-vision-for-khorezm-region-fd2b04>
16. Rajabov A. Analysis of sustainable socio-economic development of the region based on cluster approaches // Economics and Innovative Technologies. - 2024. - Vol. 12, №2. - P. 133-140. https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a15
17. Almeida G.G.F. Territorial Brand in Regional Development: Interdisciplinary Discussions // Encyclopedia. - 2023. - Vol. 3, №3. - P. 1094-1105. <https://www.mdpi.com/2673-8392/3/3/62>
18. Asian Development Bank. Country Partnership Strategy: Uzbekistan, 2019-2023. - Manila: ADB, 2019. https://www.adb.org/sites/default/files/linked-documents/04_UZB%20CPS_LD_ISGA.pdf
19. Jacobsen B.P. Investor-based place brand equity: A theoretical framework // Journal of Place Management and Development. - 2009. - Vol. 2, №1. - P. 70-84. <https://doi.org/10.1108/17538330910942368>
20. Place branding. Wikipedia. - 2026. https://en.wikipedia.org/wiki/Place_branding
21. Bright Uzbekistan. Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi: monitoring hisoboti. - 2021. <https://brightuzbekistan.uz/en/the-progress-of-work-on-the-preparation-of-a-comprehensive-program-for-the-socio-economic-development-of-makhallas-districts-and-cities-of-the-khorezm-region-was-considered/>
22. O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz). Xorazm viloyatining statistik to'plami: sanoat, investitsiyalar, tashqi savdo, kichik biznes va narxlar ko'rsatkichlari, 2010-2025. - Toshkent, 2025. <https://stat.uz/en/>



23. Aharon D., Alfasi N. The geographical aspect of place branding: Interactions between place brands in the spatial hierarchy // Applied Geography. - 2022. - Vol. 141. - Art. 102662. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0143622822000212>
24. Hanna S. et al. Place and Destination Branding: A Review and Conceptual Mapping of the Domain // European Management Review. - 2021. - Vol. 18, №3. - P. 356-374. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/emre.12433>
25. International Multidisciplinary Journal for Research & Development. Effective Impact of Enhancing the Investment Attractiveness Potential of the Kashkadarya Region on the Regional Economy. - 2026. <https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd/article/view/5373>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100